

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligida rasmiy statistika to'plamlarini rasmiylashtirish bo'yicha
uslubiy tavsiyalar**

Ushbu uslubiy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida, statistika organlari xodimlari tomonidan rasmiy statistika to'plamlarini ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, turli yillik statistika to'plamlarini hamda rasmiy statistika to'plamlari ko'rinishidagi boshqa nashrlarni tayyorlashda qo'llaniladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Uslubiy tavsiyalar GSBPMning tarqatish bosqichi doirasida axborot resurslarida ma'lumotlarni yangilashga tayyorlash, materiallarni tarqatish uchun tayyorlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Rasmiy statistika to'plamini tayyorlashning asosiy maqsadlaridan biri, foydalanuvchilarning sifatli rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga qaratilgan.

Rasmiy statistika to'plamlari kompleks yoki ma'lum bir mavzuga qaratilgan bo'lishi mumkin va aniqlashtirilgan yillik statistika ishlanmalari asosida shakllantiriluvchi raqamli ma'lumotlarning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

To'plamlarga O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini har tomonlama tavsiflovchi tizimlashtirilgan umumlashtiruvchi statistika ko'rsatkichlari joylashtiriladi va odatda qator yillar uchun jadval va grafik ko'rinishidagi materiallar to'plamini o'z ichiga oladi.

2. Statistika organlari tomonidan tayyorlangan statistik to'plam belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilgan quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- muqova;
- titul varag'i;
- mundarija;
- matnli ma'lumot (so'zboshi, metodologik tushuntirishlar);
- raqamli ma'lumot (jadvallar, grafik rasmlar, xaritalar);
- yakunlovchi qism (qaydlar uchun bo'lim, yakuniy (oxirgi) titul varag'i).

Shu bilan birga, statistika to'plamining to'g'ri ishlangan dizayni (muqova va ichki bezagi) o'ziga xos obraz (firma uslubi)ni yaratishi lozim, buning natijasida

axborotdan foydalanuvchi aynan shu to‘plamni qo‘liga olishni, o‘qishni yoki ko‘rib chiqishni xohlashi kerak.

2-bob. Muqovani rasmiylashtirish va uning dizayni


3. Muqova – bu statistika to‘plamining eng muhim grafik elementi bo‘lib – birinchi navbatda e‘tibor qaratiladigan to‘plam yuzidir. Shuning uchun, uning ustida puxta va har tomonlama o‘ylab ishlash talab etiladi.

Muqova dizayni – bu o‘ziga xos san’atdir. Muqova bezagi bo‘lajak o‘quvchini o‘ziga jalb qila olishi kerak bo‘lib, u nafaqat ma’lumot tashuvchi, balki san’at asari ham bo‘lmog‘i lozim.

Statistik to‘plamni rasmiylashtirishda dizaynning umumiy qoidalariga, shuningdek, muqovaning asosiy komponentlari va shrift talablariga ham amal qilish kerak.

Muqovada Statistika agentligining logotipi joylashtirilgan, to‘plamni chiqargan statistika organi haqida ma’lumot, to‘plam nomi, chop etilgan joy va yili ko‘rsatilishi lozim.

“Muqova” namunasi



3-bob. Titul varag‘ini rasmiylashtirish

4. Titul varag‘i — statistika to‘plami haqida asosiy ma’lumotlar keltirilgan birinchi sahifadir. Shuningdek, bu elementni rasmiylashtirishda amal qilinishi lozim bo‘lgan qoidalar mavjud.

Titul varag‘ida to‘plam nomi, tashkilot haqida ma’lumot, nashr etilgan joy, yil joylashtiriladi.

Titul varag‘ini shakllantirishda Arial shriftidan foydalaniladi.

5. Titul varag‘i hoshiyasi quyidagicha bo‘lishi lozim:

A4 formati uchun (210 mm x 297 mm) *Kitobiy*

Qarama-qarshi hoshiyalar

Yuqorigi – 3 sm Ichki – 3,5 sm

Pastki – 3,5 sm Tashqi – 2 sm

Kolontitullar hoshiyasi

Yuqorigi – 2 sm Pastki – 2,5 sm

A5 formati uchun (148 mm x 210 mm) *Albomli*

Qarama-qarshi hoshiyalar

Yuqorigi – 2,5 sm Ichki – 17,5 sm


Pastki – 2,5 sm Tashqi – 1,5 sm

Kolontitullar hoshiyasi

Yuqorigi – 1,5 sm Pastki – 2 sm

Titul varag‘ining hoshiyalari va kolontitullarini rasmiylashtirish bo‘yicha yuqorida ko‘rsatilgan talablar, shuningdek, statistika to‘plamining keyingi sahifalarini rasmiylashtirishda ham qo‘llaniladi.

“Titul varag‘i” namunasi



4-bob. Mundarijani rasmiylashtirish

6. Statistika to'plami "So'zboshi" bo'limidan so'ng joylashtiriladigan "Mundarija" bo'limiga ega bo'lishi kerak.

"Mundarija" so'zidan keyin to'plam tuzilishiga muvofiq, asosiy bo'limlar va kichik bo'limlar nomi ko'rsatiladi. Asosiy bo'limlar nomlari yarim qora (to'q) shrift bilan ajratib ko'rsatiladi.

Ikki tilli matnlar ikkita ustunga joylashtiriladi. Chap tomonda o'zbek tilidagi, o'ng tomonda rus tilidagi, sahifa tartib raqamlari ustunlar orasiga joylashtiriladi.

"Mundarija" namunasi

MUNDARIJA		СОДЕРЖАНИЕ	
So'z boshi	3	Предисловие	
SANOATNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI		ОСНОВНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	
O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari	4	Основные показатели экономики Республики Узбекистан	4
Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari	15	Основные показатели промышленности	15
Sanoat ishlab chiqarish indeksi (grafik)	16	Индекс промышленного производства (график)	16
Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi	17	Объем промышленной продукции по регионам	17
Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi	18	Индекс промышленного производства по регионам	18
Respublika bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlar ulushi	19	Доля регионов в общем объеме промышленного производства по республике	19
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari (tovarlar, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmi	20	Объем промышленной продукции по видам экономической деятельности	20
Sanoat mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha fizik hajm indeksi	22	Индекс промышленного производства по видам экономической деятельности	22
Sanoat mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha fizik hajm indeksi (grafik)	24	Индекс промышленного производства по видам экономической деятельности (график)	24
Sanoat ishlab chiqarish tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning ulushi	25	Удельный вес продукции по видам экономической деятельности в структуре промышленного производства	25

5-bob. Matnli materiallarni rasmiylashtirish

7. Matnli ma'lumotlar: so'zboshi, metodologik tushuntirishlar, shuningdek, to'plam bo'limlariga kiritilgan ko'rsatkichlarning asosiy tendensiyasi bo'yicha muhim xulosalarni o'z ichiga oladi.

Matnli materialni rasmiylashtirishda xat boshilar eni bo'yicha tekislanadi, satrlar orasidagi interval – 6 pt qo'llaniladi, xat boshining boshlang'ich satrida 1 sm joy tashlab o'tiladi.

Ikki tilli matnni ikkita ustunga joylashtirish kerak. Chap tomonga o'zbek tilidagini, o'ng tomonga rus tilidagini.

To'plam sahifalarining kolontitullarini rasmiylashtirishda Arial shriftidan foydalaniladi. Yuqori kolontitulda – bo'lim nomi, pastki kolontitulda – to'plam nomi ko'rsatib o'tiladi (toq sahifa – o'zbek tilida, juft sahifa – rus tilida).

8. So'zboshi titul varag'idan so'ng joylashtiriladi, shu bilan birga, sahifalarga tartib raqamini qo'yish uchinchi sahifadan boshlanadi va sahifaning pastki o'ng tomonida ko'rsatiladi.

So'zboshi to'plamda keltirilgan statistika ko'rsatkichlarining qisqacha mohiyatini tushuntirishdan iborat bo'lishi kerak.

Agar to'plamda o'lchov birliklarining qisqartmasi, qisqartma so'zlar va h.k.lardan foydalanilgan bo'lsa, ular shuningdek "So'zboshi" bo'limida ko'rsatiladi.

"Qisqartma" namunasi

Qisqartmalar:

Сокращения:

ming		тыс.	тысяча
million	<i>mln.</i>	млн.	миллион
milliard	<i>mlrd.</i>	млрд.	миллиард
metr kvadrat	<i>m²</i>	м ²	квадратный метр
metr kub	<i>m³</i>	м ³	кубический метр
dona		шт.	штука
nusxa		экз.	экземпляр
birlik		ед.	единица
gigakaloriya	<i>Gkal</i>	Гкал	гигакалории
tonna	<i>t</i>	т	тонна
shahar	<i>sh.</i>	г	город
shartli banka	<i>sh.b</i>	уб.	условных банок
ming shartli banka	<i>mshb.</i>	тыб.	тысяч условных банок
dekalitr	<i>dal.</i>	дал	декалитр
AQSh dollari	<i>doll.</i>	долл.	долларов США
kilovatt-soat	<i>kVt/s</i>	кВт. ч	киловатт-часов
gigavatt	<i>GVt</i>	ГВт	гигаватт

Arial, yarim qora (to‘q)

A4 – 12 pt

A5 – 10 pt

SO‘Z BOSHI

Nashrda hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Arial,

A4 – 10 pt

A5 – 8 pt

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F sektsiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dextqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Sektsiya A “Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi ichki mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, Yalpi ichki mahsulot mahsulotlarga soliqlar chiqarib tashlangan).

Arial, yarim qora (to‘q),

kursiv

A4 – 10 pt

A5 – 8 pt

ПРЕДИСЛОВИЕ

В настоящей публикации статистические показатели за отчетный период сформированы и представлены в структуре Общegosударственного классификатора видов экономической деятельности Республики Узбекистан, (ОКЭД–2), основанном на Статистической классификации видов экономической деятельности в Европейском Сообществе (NACE Rev.2).

При этом, в соответствии с ОКЭД–2 меняются границы существующих видов экономической деятельности. В частности, отнесены к производственным процессам все виды деятельности, направленные на преобразование используемых или перерабатываемых продуктов в новые их виды: горнодобывающая промышленность и разработка карьеров, обрабатывающая промышленность, электроснабжение, подача газа, пара и кондиционирование воздуха, водоснабжение, канализация, сбор и утилизация отходов, строительство (секции B,C,D,E,F классификатора).

В целях устранения различий в толковании границы сельскохозяйственного производства, как отрасли экономики, в обновленном классификаторе сельское хозяйство объединяет в себя не только производство продуктов растениеводства и животноводства, но и производство продуктов лесных и рыбных хозяйств (секция A «Сельское, лесное и рыбное хозяйство»).

Также, в соответствии с международной статистической практикой, в целях более точного анализа экономических трендов долевые показатели видов экономической деятельности в структуре ВВП и валовой добавленной стоимости не включают влияние налогов на продукты из объема

Arial, yarim qora (to‘q),

A4 – 10 pt

A5 – 8 pt

9. Uslubiy tushuntirishlar – statistik to‘plamning zaruriy qismidir. Ushbu bo‘limda to‘plamga kiritilgan asosiy ko‘rsatkichlar tavsifi joylashtirilib, zarur hollarda ularni hisoblash metodikasi yoki ma’lumot olingan manbalar keltiriladi.

Agar to‘plam kompleks xususiyatga ega bo‘lib, bir nechta tarmoqni qamrab olgan bo‘lsa, har bir yangi bo‘lim uslubiy tushuntirishlardan boshlanishi kerak. Agar to‘plam bir tematik yo‘nalishga ega bo‘lsa, uslubiy tushuntirishlar yangi sahifadan boshlanadi va asosiy (jadval, grafik ko‘rinishdagi) materialdan oldin joylashtiriladi.

Tushuntirishlarni rasmiylashtirish quyida keltirilgan namunaga muvofiq amalga oshiriladi.

“Uslubiy tushuntirishlar” namunasi

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОЯСНЕНИЯ
Narxlar statistikasi bu – iqtisodiyotning turli sohalaridagi subyektlarning narx hatti-harakatlarini o‘rganadigan iqtisodiy statistika sohasi.	Статистики цен – отрасль экономической статистики, изучающая ценовое поведение субъектов в различных секторах экономики.
Narx – tovar birligi miqdori uchun ma’lum bir valyuta (milliy yoki xalqaro) pul birligida ifodalangan miqdorning ifodasi. Qiyosiy narx – aynan bir savdo obyekti va pullik xizmat sohasida ro‘yxatga olingan aynan bir yoki sifati bo‘yicha aynan o‘xshash tovar (xizmat, mahsulot turi) narxi.	Цена – выражение стоимости товара в денежных единицах определенной валюты (национальной или международной) за количественную единицу товара. Сопоставимая цена – цена, зарегистрированная в одной и той же базовой организации на один и тот же или аналогичный по качеству товар (услугу, вид продукции).
Narx darajasi – muayyan bir hududda, xuddi shu xususiyatlari bilan tovar va umumiy tarkibida narxlarning holatini tavsiflovchi ko‘rsatkich. Narxlar darajasini baholash narxlarni statistik o‘rganish bosqichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.	Уровень цен – показатель, характеризующий состояние цен за определенный период времени, на определенной территории, по совокупности товаров и товарных видов с близкими потребительскими свойствами. Оценка уровня цен – один из этапов в статистическом изучении цен.
O‘rtacha narx – ma’lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlar guruhidagi narxlarning o‘zgarishini umumlashtirish xarakteridagi narx. Statistik tajribalarga asosan, dastlabki ma’lumotlar hamda ularning shakllantirish tartibiga ko‘ra o‘rtacha narxlarni hisoblashning turli usullari mavjud.	Средняя цена – обобщающая характеристика для цен однородной товарной группы, варьирующих во времени или пространстве. В статистической практике имеют место разные способы расчета средних цен, выбор которых зависит от наличия исходной информации и способа ее сбора.
Ro‘yxatga olish narxi – sifati, sotish shartlari va davr oralig‘i aniq belgilangan muayyan bir tovar, mahsulot yoki xizmat turiga to‘langan pul birligi miqdori.	Цена регистрации – количество денежных единиц, уплаченных за конкретный вид товара, продукции или услуги, качество, условия продажи и период времени для которых четко определены.

6-bob. Jadvallarni tuzish va rasmiylashtirish

10. Statistik jadval – bu bir yoki bir nechta belgilari bo‘yicha guruhlangan birliklar majmuining yig‘ma raqamli tavsifini o‘z ichiga olgan, raqamli materialni tizimlashtirilgan holda oqilona va yaqqol bayon qilish shaklidir.

Jadvallar ma’lumot uchun yoki ko‘rgazmali bo‘lishi mumkin.

Ma’lumot uchun jadvallar – bu o‘z ichiga katta miqdordagi batafsil ko‘rsatkichlarni olgan, shu jumladan ular asosida foydalanuvchilarga mustaqil ravishda o‘z tahliliy jadvallarini tuzish imkonini beruvchi interaktiv ma’lumotlar bazasi ko‘rinishidagi yirik jadvallardir.

Ko‘rgazmali jadvallar asosiy raqamlarga e’tiborni tortish uchun foydalaniladi va qisqacha, yaxshi tashkillashtirilgan holda taqdim etiladi.

Statistika to‘plamlari odatda ko‘rgazmali jadvallarni o‘z ichiga oladi, bunda bitta yirik jadvaldan ko‘ra, unchalik katta bo‘lmagan bir nechta o‘zaro uzviy bog‘liq jadvallarni tuzish maqsadga muvofiq.

Agar to‘plamga bir betdan ko‘proq joyni egallaydigan jadvalni joylashtirish kerak bo‘lsa, keyingi betda ustun sarlavhasi takrorlanadi, jadvalning o‘ng tomondagi yuqori qismida esa “*Davomi*” so‘zi kursiv bilan yozib qo‘yiladi.

Statistik jadvallar beshta asosiy qismdan tashkil topgan:

- jadval nomi
- ustunlar sarlavhasi
- satrlar sarlavhasi
- ma’lumotlar maydoni
- eslatma, izoh.

11. Statistik jadvallarni tuzishda quyidagi asosiy talablarga amal qilinishi lozim.

Jadvallar, ustunlar va satrlarning nomi aniq, ixcham va lo‘nda bo‘lishi kerak va hech qanday qisqartmalarsiz (umum qabul qilingan qisqartmalar yoki qisqartma so‘zlardan tashqari) to‘liq ko‘rsatilishi kerak.

Agar ma’lumotlar bir yil uchun taqdim qilingan bo‘lsa, jadval nomida ma’lumotlarning qaysi davrga tegishliligi ko‘rsatiladi.

Agar jadvalda keltirilgan ma’lumotlar mazmun jihatidan aynan bir o‘lchov birligida ifoda qilingan bo‘lsa, tegishli o‘lchov birligi jadvalning nomidan keyin ko‘rsatiladi (kichik harflar bilan, qavs ichida, satr markaziga to‘g‘rilab).

Jadval ustunlari sarlavhasini ikki qatordan oshirmaslikka harakat qilish kerak, ustunlarning o‘zi esa bir tekisda, bir biridan uzoqlashib ketmagan holda joylashishi kerak. Jadvallarda rangli fonlardan foydalanilmaydi.

Ustun va satrlar sarlavhasidagi matnli ma'lumotlar kichik harflarda birinchi harfi bosh harfda keltiriladi, ustun va satrlar sarlavhasidagi alohida so'zlarni kursiv bilan belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Qisqartma so'zlar, shuningdek, foiz belgisi, raqam va boshqalar, ular tegishli bo'lgan so'z va raqamlardan ajralib boshqa satrga ko'chib qolmasligi kerak (masalan, 10%, 2021-y. va h.k.).

Yozilishida defis ishlatilgan so'zlar (yanvar-mart, nikel-kobaltli) birga (ochiq joy siz) ko'rsatiladi. Shu bilan birga, mln. so'm, mln. tonna, mlrd. km. kabi iboralarda ochiq joydan foydalaniladi.

Jadval ustun va satrlarining sarlavhasida "shu jumladan", "ma'lumot uchun", "ulardan" iboralaridan foydalanilganda, ikki nuqtadan faqat satr sarlavhalaridagi bir guruh ko'rsatkichlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lgandagina, ya'ni asosiy va bo'ysinuvchi satrlardan iborat bo'lganda (masalan, respublika bo'yicha ma'lumotlar, shu jumladan hududlar kesimida) foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarini tavsiflovchi jadvalni shakllantirishda, birinchi satrda "O'zbekiston Respublikasi", so'ngra "Qoraqalpog'iston Respublikasi", alfavit tartibida respublika viloyatlari, oxirida Toshkent sh. ko'rsatiladi. Yanada aniqlashtirilgan jadvallarda (shaharlar, tumanlar ko'rsatilganda), avval viloyat, so'ngra shahar va tumanlar alfavit tartibida ko'rsatiladi.

12. Jadvalning ma'lumotlar maydonida to'ldirilmagan qiymatliklar bo'lmasligi lozim, bunda standart shartli belgilardan foydalanish kerak:

“ – ” (tire) – agar ushbu hodisa mavjud bo'lmasa;

“ ... ” (ko'p nuqta) – agar ma'lumot mavjud bo'lmasa;

“ 0,0 ” – agar ma'lumot mavjud bo'lsayu, lekin raqamli qiymati jadvalda qabul qilingan aniqlikdan kichkina bo'lsa;

“ x ” – agar ushbu katak umuman to'ldirilmaydigan bo'lsa, shu belgi qo'yiladi.

Ma'lumotlar maydonida o'nlik kasrlar darajasining minimal sonidan foydalanish kerak. Shu bilan birga, aynan bir ustun yoki satrdagi raqamlarni yaxlitlashni bir xil darajadagi aniqlikda bajarish kerak (odatda, butun songacha yoki o'nlikkacha).

Agar ko'rsatkich foizda ifodalangan bo'lsa, katta sonlarni "shuncha marta" iborasi bilan almashtirish kerak: $206\% = 2,1m$.

Jadval tuzishda "korporativ uslub"ni yaratish uchun, shuningdek, uning dizayniga qo'yilgan talablarga rioya qilish kerak.

Jadval dizaynini rasmiylashtirishda va formatlashda maxsus kontekstli menyudan foydalanish lozim, "probel" tugmasidan foydalangan holda qiymatlarni tekislashga, so'zlarni boshqa satrga o'tkazish uchun majburiy bo'g'inlarga bo'lishga yo'l qo'yilmaydi va h.k.

Jadval ustunlari sarlavhalari markaz bo'yicha tekislanadi (vertikal va gorizontal bo'yicha).

Satr sarlavhalari chap tomon va markaz bo'yicha tekislanadi. Bo'ysinuvchi satrlar abzats tashlab belgilanadi.

Bo'ysinuvchi satrlarning (ikkinchi, uchinchi darajadagi) nomi, agar ular yuqori turuvchi satr bilan bitta gapni tashkil qilsa kichik harf bilan boshlanadi, agar o'zi mustaqil gapni tashkil qilsa bosh harf bilan boshlanadi.

Ma'lumotlar maydonida raqamli qiymatlar gorizontal va vertikal chiziq bo'ylab markaz bo'yicha tekislanadi. Yakuniy satrlardagi raqamli qiymatlar yarim qora (to'q) shrift bilan belgilanadi.

Eslatma yoki izoh matni jadvalning chapki pastki qismiga, gorizontal chiziq ostiga joylashtirilib, bosh harf bilan boshlanadi, kursiv bilan ajratiladi, chap tomonga tekislanib, ibora yakunida nuqta qo'yiladi.

Jadvaldagi izohlarga tartib raqami qo'yib, ularni qavs bilan yopish kerak (masalan, “¹⁾ ²⁾”).

“Jadval” namunasi

Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari		Промышленно-производственные основные фонды			
Sanoat korxonalarining asosiy fondlari ¹⁾		Основные фонды промышленных предприятий ¹⁾			
(mlrd. so'm)		(млрд. сум)			
		2019	2020	2021	2022
Sanoat jami	124 610,3	231 453,7	297 131,1	323 017,1	ость
ula					
tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	8 480,6	57 953,3	76 120,6	74 810,3	горнодобывающая промышленность и разработка карьеров
ishlab chiqaradigan sanoat	85 579,2	121 827,4	152 521,6	193 883,0	
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	25 709,8	44 946,0	59 893,6	44 282,1	электроснабжение, подача газа, пара и кондиционирование воздуха
suv bilan ta'minlash kanalizatsiya; chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	4 840,7	6 727,0	8 595,3	10 041,7	водоснабжение; канализация, сбор и утилизация отходов

¹⁾ Kichik korxonalar, mikrofirmalar va notijorat tashkilotlarsiz / Без малых предприятий, микрофирм и некоммерческих организаций

7-bob. Vizual materiallarni tuzish va rasmiylashtirish

13. Ma'lumotlarni vizuallashtirish (ko'rib tahlil uchun qulay ko'rinishda tasvirlash) statistik tendensiyalar va uzviy bog'liqliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatishning muhim elementi hisoblanadi. Grafik yoki xarita ko'rinishida taqdim etilayotgan statistik ma'lumot, raqamlarning uzun ro'yxatiga qaraganda kitobxon uchun ancha tushunarlidir.

Shu bilan birga, unutmaslik kerakki, grafik yoki xarita ko'rinishidagi ma'lumotlar faqat ma'lum bir maqsadga erishish vositasidir. Statistik axborotdagi mavjud g'oya, statistiklar ixtiyorida qanday zamonaviy texnika vositalari mavjudligini namoyish qilishdan ko'ra ancha ko'p muhimroqdir.

Vizual materiallarni tayyorlash jarayonida, ularning keng auditoriya tomonidan osonlik bilan tushunilishini, vizuallashtirish elementlaridan foydalanish umumiy qoidalariga amal qilinishini, shuningdek, noto'g'ri talqin qilish holatlariga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash zarur.

14. Statistik grafik – bu bir yoki ikki o'lchovli tasvir bo'lib, undagi statistik ko'rsatkichlar to'plami shartli geometrik shakllar yoki belgilar yordamida tasvirlanadi.

Grafikning turli tarkibiy qismlari statistik to'plam kitobxonining e'tiborini o'ziga jalb qiladi, shuning uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmagan foydalanuvchining grafikni to'g'ri tushunishini ta'minlash maqsadida rasmiylashtirishning asosiy talablariga rioya qilish kerak.

Rangli grafikda quyidagi ranglarni qo'llash tavsiya etiladi: yashil, ko'k, binafsha rang, havo rang, pushti rang va ularning turlaridan kelib chiqib, ularni to'q rangdan och rangga qarab (chapdan o'ngga, asosidan yuqori qismiga) joylashtirish kerak. Ranglarni qo'llashda, ular rangining grafikning boshqa tarkibiy qismlari bilan mos kelishini ham hisobga olish kerak.

Oq-qora rangdagi grafiklarda ranglarning tekstura va bezak usullaridan foydalanish kerak, rangli grafiklarni vizuallashtirishda bu usuldan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Raqamlarni grafiklarning o'zida aks ettirish kerak, to'q rangli fonda odatiy rangdagi fon, raqamlar qora rangda, och rang fonda shrift qora, fonning rangi shaffof bo'lishi kerak.

Katak chiziqlarning asosiy chiziqlari kul rangdagi uzluksiz chiziqlarda berilishi lozim (kul rang 25%).

Turli xil o'lchamlarni taqqoslashni ko'rsatuvchi grafikda ustunlarni tasodifiy ravishda joylashtirmasdan, ularning katta-kichikligiga qarab (o'sib yoki kamayib borishi bo'yicha) ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Statistika to'plamida joylashtirilgan grafik yetarli darajada aniq, ifodali va tushunilishi oson bo'lishi kerak.


Statistik to'plamda turli xil ko'rinishdagi grafiklardan foydalanish lozim, shu bilan birga grafik turini aniqlashda quyidagi tavsiyalarni inobatga olish kerak.

Grafikning eng oddiy turi – bu gistogramma bo‘lib, u turli xil toifadagi yoki turkumdagi kattaliklarni solishtirishda ishlatiladi.

15. Gistogrammalar vertikal va gorizontal ko‘rinishda bo‘lishi mumkin, garchi gorizontal ko‘rinishda matn osonroq qabul qilinsada. Gistogramma ustunlari ular orasidagi probellarga nisbatan enliroq bo‘lishi kerak.

Yakuniy raqamlarni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarni namoyish qilish uchun ustunli diagrammalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


“Gistogramma (ustunli diagramma)” namunasi



Umumiy hajmda har bir toifaning ulushini aks ettirishda, odatda jamlanma gistogrammalardan foydalaniladi. Statistik jamlanmaning tarkibi absolyut yoki nisbiy ko‘rsatkichlar yordamida ifodalanishi mumkin. Diagrammaning o‘lchami o‘zgarmaydi (chunki har qanday jamlanmaning barcha qismlari yig‘indisi 100 % ni tashkil qiladi), faqat uning alohida qismlarining o‘lchami o‘zgaradi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning amaldagi narxlarda o'z kuchi
bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi
(QQSsiz), turlari bo'yicha
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz; foizda)**

**Объем строительных работ, выполненных
собственными силами, в фактических ценах (без НДС)
малых предприятий и м
(без фермерских и дехканских)**




16. Chiziqli grafiklar jarayonlarni uzluksiz siniq chiziqli shakllar ko'rinishida tasvirlaydi va vaqtli qatorlar tendensiyalarini tasvirlashda eng qulay diagramma hisoblanadi.

Odatda, chiziqli grafiklarda gorizontal o'q bo'yicha davrlar (yillar, oylar va h.k.), vertikal o'q bo'yicha esa tasvirlangan hodisa yoki jarayonlarning o'lchamlari joylashtiriladi.

Ko'pincha chiziqli bitta grafikda turli ko'rsatkichlar yoki aynan bir ko'rsatkich dinamikasining qiyosiy xususiyatini ifodalovchi bir necha egri chiziq keltiriladi. Biroq, bitta grafikda uchta-to'rttadan ortiq egri chiziqlarni joylashtirish kerak emas, chunki ularning ko'p sonli bo'lishi grafikni albatta qiyinlashtiradi va chiziqli diagramma aniq-ravshanligini yo'qotadi.

O‘q shkalasi doimo 0 dan boshlanishi lozim, faqat grafik maydonining uchdan ikki qismi foydalanilmasdan qoladigan chiziqli diagrammalarni tuzishda hamda agar shkala 0 dan boshlanmagan taqdirda, bu hodisa dinamikasini tasvirlashda xatoliklarga olib kelmaydigan bo‘lsa, buni istisno qilish mumkin.

“Chiziqli diagramma (grafik)” namunasi



17. Aylana diagramma ko‘rinishidagi grafikdan odatda bir o‘zgaruvchining foizlarda taqsimlanishini, ya’ni umumiy yig‘indisi har doim 100 % ga teng bo‘lgan ulushlar qiymatini tasvirlash uchun foydalaniladi.

Aylana diagramma, faqat uni tashkil qiluvchi qismlar soni uncha katta bo‘lmagan holatda o‘zining aniq ko‘rinishi va ma’nosini saqlab qoladi, aks holda undan foydalanish kam samara beradi. Unda 5-6 tadan ko‘p bo‘lmagan qismlarni tasvirlash tavsiya etiladi. Bundan tashqari, bo‘limlarga bo‘lingan diagrammaning aniqlik darajasi, uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar o‘rtasida uncha katta farqlar

bo'lmasa kamayadi; agar solishtirilayotgan tarkibiy qismlar o'rtasida sezilarli farqlar bo'lsa, aniqlilik darajasi ortadi.


Agar alohida guruh yoki qismga urg'u berish kerak bo'lsa, buni tarkibiy qismni (ulushni) bir oz "chiqarib" va/yoki yozuvni to'qroq qilib ajratib amalga oshirish mumkin.

Vaqt qatorlarini tasvirlashda hech qachon aylana shaklidagi diagrammalardan foydalanmaslik kerak.

"Aylana shaklidagi diagramma" namunasi

**2023- yil 1- yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz; jamiga nisbatan foizda)

**Распределение числа зарегистрированных малых
предприятий и микрофирм по видам
экономической деятельности на 1 января 2023 года**
(без фермерских и дехканских хозяйств; в процентах к итогу)



Arial, yarim qora (to'q)
A4 – 10 pt
A5 – 8 pt

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi / Сельское, лесное хозяйство и рыбное хозяйство
- Sanoat / Промышленность
- Qurilish / Строительство
- Savdo / Торговля
- Tashish va saqlash / Перевозка и хранение
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar / Услуги по проживанию и питанию
- Axborot va aloqa / Информация и связь
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish / Здоровоохранение и предоставление социальных услуг
- Boshqa turlari / Прочие виды


18. Murakkab diagramma ko‘rinishidagi grafik bir necha qator ma’lumotlardan tashkil topgan bo‘lib, ularda har xil turdagi diagrammalar o‘zaro bog‘lanadi, masalan gistogramma va grafik.

Agar grafikda turli o‘lchov birligidagi ikkita ko‘rsatkichlar dinamikasini solishtirish kerak bo‘lsa, murakkab diagrammadan foydalaniladi. Odatda, bunday jadvallar ikkita keng ko‘lamli shkalaga ega bo‘ladi (o‘ngda va chapda). Murakkab diagrammalarda o‘lchov birliklari izohda ko‘rsatib o‘tiladi.

“Murakkab diagramma” namunasi

Mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari

Основные показатели рынка труда



-  Iqtisodiy faol aholi, *ming kishi*
Экономически активное население, *тыс. человек*
-  Ishsizlar soni, *ming kishi*
Безработное население, *тыс. человек*
-  Iqtisodiyotda bandlarning o'rtacha yillik soni, *ming kishi*
Среднегодовая численность занятых в экономике, *тыс. человек*
-  Ishsizlik darajasi, *foizda*
Уровень безработицы, *в процентах*

19. Navbatdagi grafik turi – bu demografik piramida bo‘lib, erkaklar va ayollarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishini tasvirlovchi ikkita gorizonttal tarzda joylashgan gistogrammalar birikmasidan tashkil topgan.


“Yo‘naltirilgan diagramma” namunasi

Aholining jinsi va yoshi bo‘yicha tarkibi

(2023- yil 1- yanvar holatiga; ming kishi)

Распределение населения по полу и возрасту

(на 1 января 2023 года; тысяч человек)



Statistik xaritalar

20. Statistik xaritalar, ma'lum bir hududda u yoki bu hodisani tarqalish darajasi va o'lchamini tavsiflovchi, makon tendensiyalarini vizuallashtirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Sxema tarzidagi geografik xaritada tasvirlash vositalari bo'lib, shtrixlash, fonni bo'yash yoki geometrik shakllar hisoblanadi.

Kartogramma – bu sxema tarzidagi geografik xarita bo'lib, unda xaritaga tushirilgan har bir hududiy bo'linma chegarasi doirasida biror ko'rsatkichning qiyosiy sodir bo'lish darajasi turli qalinlikda shtrixlash, nuqtalar yoki ma'lum darajada yorqin rangga bo'yash yordamida ko'rsatiladi (masalan, viloyatlar yoki respublikalar bo'yicha aholi zichligi, tumanlarning don ekinlari hosildorligi bo'yicha taqsimlanishi va h.k.).

Kartogrammalarda ko'pi bilan 2-3 ko'rsatkichni aks ettirish talab etiladi (fonni hisobga olgan holda), aks holda kartalar ma'lumotlar bilan ortiqcha to'lib ketadi.


“Kartogramma” namunasi

Aholining zichligi

(2023- yil 1- yanvar holatiga; 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni)

Плотность населения

(на 1 января 2023 года; число жителей на 1 кв.км)



8-bob. Statistika to‘plamining yakunlovchi qismini rasmiylashtirish

21. Statistika to‘plamining yakunlovchi qismida “Qaydlar uchun” 1-2 ta to‘ldirilmagan sahifalarni qoldirish tavsiya etiladi, u yerda kitobxon o‘zining qisqacha qaydlarini, izohlarini yoki tahliliy xulosalarini joylashtirishi mumkin.

Qaydlar uchun sahifalarni rasmiylashtirish va formatlashni standart namunaga muvofiq amalga oshirish lozim.

“Qaydlar uchun” namunasi

**IZOH UCHUN
ZAMETOK**

DLYA

Kolontitul
Arial, yarim qora (to‘q), kursiv
A4 – 10 pt
A5 – 8 pt

“Qaydlar uchun” sahifalaridan keyin, mazkur to‘plamni identifikatsiyalovchi ma’lumotlar ko‘rsatilgan, to‘plamning yakuniy titul sahifasi joylashtiriladi.

ЎЗБЕКИСТОН СANOАТИ
ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
УЗБЕКИСТАНА

Statistik to'plam

Arial, yarim qora (to‘q)
A4 – 12 pt
A5 – 10 pt

Ответственный за выпуск:

Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi
Управление сводно-информационных работ

Bog'lanish telefon raqamlari:

Контактные телефоны:
(998 71)

202-80-99, 202-81-71

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligi
Statistik materiallar
tarqatishni texnik
qo'llab-quvvatlash sho'basini**

Сектор технической
поддержки
распространения
статистической информации
Агентство
при президенте
Республики Узбекистан

Arial, yarim qora (to‘q)
A4 – 12 pt
A5 – 9 pt

Buyurtma raqami № 3030
13.09.2023-y.
Adadi 100 nusxa

Заказ № 3030
от 13.09.2023г.
Тираж 100 экз.

www.stat.uz
e – mail: info@stat.uz

**Arial, yarim qora (to‘q),
kursiv
A4 – 12 pt
A5 – 9 pt**